



Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 18 973 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-aprel holatiga, birlik	2026-yil 1-aprel holatiga, birlik
Navoiy shahar	4 117	4 756
Zarafshon shahar	1 157	1 313
G'ozg'on shahar	385	435
Konimex tumani	710	860
Qiziltepa tumani	2 280	2 559
Navbahor tumani	1 698	1 786
Karmana tumani	2 785	3 222
Nurota tumani	1 084	1 224
Tomdi tumani	354	396
Uchquduq tumani	568	582
Xatirchi tumani	1 630	1 840

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-martda 762 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026-yilning yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 274 ta, sanoatda 117 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 93 ta, boshqa xizmatlarda 77 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 274 ta, sanoatda 117 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 99 tani hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 93 tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


Hudud nomi	2025-yil yanvar- mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Navoiy shahar	201	218
Zarafshon shahar	51	89
G'ozg'on shahar	13	13
Konimex tumani	23	38
Qiziltepa tumani	61	80
Navbahor tumani	60	44
Karmana tumani	139	131
Nurota tumani	31	31
Tomdi tumani	7	22
Uchquduq tumani	18	22
Xatirchi tumani	69	74

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2026-yilning yanvar-martda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 18,0% ni tashkil qilib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan 2,7 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi


2026-yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 94,5%, qurilishda – 70,9 %, xizmatlar sohasida – 57,7 % va sanoatda – 2,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 029,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 4,1 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahri (100,0 %), Uchquduq tumani (99,3 %), Zarafshon shahri (91,4 %), Qiziltepa tumani (87,8 %), va Nurota tumani (80,1 %), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 172,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 68,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %) va Xatirchi tumani (91,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8310,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 64,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,0 m. martani tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahri (99,9%), Nurota tumani (98,1 %), Zarafshon shahri (97,0 %) va Qiziltepa tumani (93,5 %), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 3 266,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahri (98,5 %), Zarafshon shahri, Qiziltepa tumani Navbahor tumani va G'ozg'on shaharlarida (98,3%) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 3 696,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Karmana tumanida (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,3%), Qiziltepa tumani va Tomdi tumanlarida (98,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 4 116,3 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 58,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Uchquduq tumanida (71,5 %), Tomdu tumanida (62,2 %), Qiziltepa tumanida (61,7 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 14,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 3,2 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, G'ozg'on shahar, 100,0 %, Qiziltepa tumani, 99,9 %, va Zarafshon shahrida 94,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-martda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 211,2 million AQSH dollarini yoki jami importning 58,2 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq tumani, G'ozg'on shaharlari, 100 % Nurota tumanida 99,4 %,ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-martda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 39,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,1 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,7 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar- martda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,2% ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi





V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martda 43,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martda esa 31,6 % ga yetgan yoki 2022-yilning yanvar-martga nisbatan 12,0 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-martda 53,0 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martda 49,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-martda 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-martga kelib, bu ko'rsatkich 14,1 % ga yetgan, va iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalar ulushi 2026-yilning yanvar-martda 5,0 % ni tashkil etgan.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)


Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalar ulushi

2022-yilning yanvar-martda 56,1 % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar- martda 55,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-martda 42,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martda 43,8 % yoki 1,5 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-martda 1,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-mart ga kelib, bu ko'rsatkich 1,1 % ni tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 41,4 % ni, sanoat sohasida 35,9 % ni, xizmatlar sohasida 28,9 % ni, qishloq xo'jaligida 27,9 % ni, va qurilish 23,1 % ni va tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida, 56,4 % ni, xizmatlar 52,6 % ni, qurilish 51,9 % ni, va sanoatda 45,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda 19,2 % ni, sanoatda 14,9 % ni, va savdo sohasida 13,3 % ni tashkil etdi.

Hamda iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo sohasida 6,2 % ni, qurilishda 5,8 % ni, va xizmatlarda 5,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>



Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

M.Uzoqov
79 223-57-61

Manzil:

210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
